Jahon sog'liqni saqlash tashkilotining ma'lumotlariga ko'ra, dunyoda taxminan 325 mln. odam parenteral hepatit viruslari bilan zararlangan bo'lib, 500 mln. dan ko'p insonlar klinikasiz virus tashuvchanlikka ega. 2015 – yilda virusli hepatit tufayli 1,34 mln. o'lim holati kuzatilgan. Gemostaz tizimi fiziologiyasi jigar faoliyati bilan bevosita bog'liq, chunki hepatotsitlar ko'plab koagulyatsion omillar, antikoagulyant oqsillar, fibrinoliz tizimi komponentlari va tromboezni stimullovchi omillarni ishlab chiqaradi. Surunkali diffuz jigar kasalliklari bilan kasallangan bemorlarda qizilo'ngach varikoz kengaygan venalaridan qon ketishi, gematomalar, gemorragik purpura, burun va milk qonashi, menorragiyalar kabi asoratlarni kuzatilishi hozirgacha dolzarb klinik muammo bo'lib qolmoqda. Maqsad: HCV etiologiyali jigar sirrozida antivirus terapiya fonida mielogramma ko'rsatkichlarining laborator diagnostikasini baholash. Ma'lumotlar 2020-2023 yillarda Toshkent tibbiyot akademiyasi 1-klinikasi gematologiya va hepatobiliar patologiyasi bo'limlarida HCV etiologiyali surunkali hepatit bilan davolangan bemorlardan olindi.

**ОСОБЕННОСТИ МИЕЛОГРАММЫ НА ФОНЕ АНТИВИРУСНОЙ ТЕРАПИИ
ПРИ ЦИРРОЗЕ ПЕЧЕНИ ВГС-ЭТИОЛОГИИ****Н. Ф. Нуриддинова**

Ташкентская медицинская академия, Ташкент, Узбекистан

По данным Всемирной организации здравоохранения, в мире проживает около 325 миллионов человек. Человек заражен вирусами парентерального гепатита, 500 млн. больше людей, чем в 2015 году от вирусных гепатитов было зарегистрировано 1,34 миллиона смертей. Физиология системы гемостаза напрямую связана с деятельностью печени, поскольку гепатоциты вырабатывают множество факторов свертывания крови, белков-антикоагулянтов, компонентов системы фибринолиза и факторов, стимулирующих тромбопоэз. Актуальной клинической проблемой остаются такие осложнения, как кровотечения из варикозно расширенных вен пищевода, гематомы, геморрагическая пурпура, кровотечения из носа и десен, меноррагия у больных хроническими диффузными заболеваниями печени. Цель: оценить лабораторную диагностику показателей миелограммы на фоне противовирусной терапии при циррозе печени HCV-этиологии. Собраны данные от больных, проходивших лечение по поводу цирроза печени HCV-этиологии в отделениях гематологии и гепатобилиарной патологии 1-й клиники Ташкентской медицинской академии в 2020-2023 годах.

**FEATURES OF MYELOGRAM ON THE BASIS OF ANTIVIRUS THERAPY IN LIVER CIRRHOSIS
WITH HCV ETIOLOGY****N. F. Nuriddinova**

Tashkent Medical Academy, Tashkent, Uzbekistan

According to the World Health Organization, there are about 325 million people infected with parenteral hepatitis viruses in the world. More than 500 million people are carriers of the virus without clinical manifestations. 1.34 million deaths were observed due to viral hepatitis in 2015. The physiology of the hemostasis system is directly related to the activity of the liver, because hepatocytes produce many coagulation factors, anticoagulant proteins, components of the fibrinolysis system, and factors that stimulate thrombopoiesis. Complications such as bleeding from esophageal varices, hematomas, hemorrhagic purpura, bleeding from the nose and gums, and menorrhagia in patients with chronic diffuse liver diseases remain an urgent clinical problem. The purpose of the study is to evaluate laboratory diagnostics of myelogram against the background of antiviral therapy in liver cirrhosis with HCV etiology. Data were collected from patients treated with cirrhosis of the liver of HCV etiology in the departments of hematology and hepatobiliary pathology of the 1st clinic of the Tashkent Medical Academy in 2020-2023.

Muammoning dolzarbligi. Jigar kasalliklarining kuchayishi va og'ir asoratlarning paydo bo'lishida gemostazdagi patogenetik o'zgarishlar orasida angiotrofik, adgezion, agregatsiya faolligi va mikrosirkulyatsiya buzilishi bilan tavsiflangan trombotsitar gemostaz hal qiluvchi rol o'ynaydi. [15,8].

Fusegawa H. va boshqalarning 2002-yilda olib borgan tadqiqotiga ko'ra, surunkali hepatit C va jigar sirrozi (JS) bilan og'irgan bemorlarda trombotsitlar soni sezilarli darajada kamaygan. Trombotsitlar diffuz jigar kasalliklarida ham miqdor, ham sifat jihatidan salbiy ta'sir ko'rsatadi va disfunktsiyani namoyon qiladi, natijada trombotsitopeniya, adgezion va agregatsiya anomaliyalari og'ir asoratlarning rivojlanishiga olib keladi [13].

Trombotsitlar nafaqat qon ivishida rol o'ynaydi, balki organlarning rivojlanishiga va to'qima-

larning tiklanishiga bevosita ta'sir qiluvchi regenerativ xususiyatiga ega. Bu ayniqsa, jigar faoliyatini tiklash uchun zarur bo'lishi mumkin va antifibrotik terapiyada qo'llaniladi [14,11]. Biroq, so'nggi yillarda gemokomponent terapiya va transfuziya orqali yuqadigan infeksiyalar xavfini kamaytirish uchun gemostatik patologiyada qon tarkibiy qismlarini quyishni kamaytirish bo'yicha tavsiyalar mavjud [3].

Jigar kasalligi asosan trombotsitlar yopishishi va agregatsiyasining noto'g'ri ishlashi tufayli qon ivish jarayonining buzilishiga olib keladi [10]. Ushbu disfunktsiya jigardagi o'ziga xos fermentlar va transaminazalarning faolligi bilan bog'liq [2,6].

Qon ivishi uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lgan koagulyatsion omillarning ishlab chiqarilishi ham endotelial hujayralar, ham gepatotsitlar faoliyatiga bog'liq bo'lib, jigar funksiyasini qon tomirlari devorlarining salomatligi bilan o'zaro bog'laydi. [11, 7, 1].

Jigar sirrozi bilan og'rikan bemorlarda trombotsitlarning Villebrand omili bilan bog'lanishi 50% ga kamayadi, bu qon ketish xavfini oshiradi [5, 9]. Villebrand omilining faolligi asosiy sababdan qat'iy nazar, diffuz jigar fibrotik kasalliklarida sezilarli darajada oshadi [12].

Prostatsiklin va azot oksidi sintezining kuchayishi silliq mushaklar va trombotsitlardan kalsiy ionlarini olib tashlaydi, spazmlar va trombotsitlar agregatsiyasini oldini oladi [3,4].

Yuqorida aytib o'tilgan barcha omillar diffuz jigar kasalliklarida gemorragik sindromning rivojlanishiga olib keladi. Virusli jigar sirrozi bilan og'rikan bemorlarda birlamchi gemorragik alomatlar 34,3% hollarda burundan qon ketish, 30,2% milkdan qon ketish, 26,7% teri petexiyalari, 20,9% gemoroidal qon ketish, 16,9%, menorragiya, 11,6% hollarda bosh miyaga qon quyilishi kuzatiladi va og'rikan bemorlarda gemorragik sindrom 53,3% hollarda kuzatildi. Bunday bemorlarda sezilarli gemorragik sindromni hisobga olgan holda, qon ketishining oldini olish va davolash uchun qon ivishini va qon tomir-trombotsitlar gemostazini har tomonlama baholash zarur [12].

Tadqiqot maqsadi. HCV etiologiyali surunkali JS da antivirus terapiya (AVT) negizida mielogramma ko'rsatkichlarining laborator diagnostikasini baholash.

Tadqiqot materiallari va usullari. Ma'lumotlar 2020-2023 yillarda Toshkent tibbiyot akademiyasi 1-klinikasi gematologiya va gepatobiliar patologiyasi bo'limlarida HCV etiologiyali jigar sirrozi bilan davolangan bemorlardan olindi.

Tekshiruv natijalari va muhokamasi. HCV etiologiyali JS bilan kasallangan 15 ta bemorlardan davolashdan oldin va AVTdan 3 oydan keyin mielogramma sitologik ko'rsatkichlari o'rganildi. Nazorat guruhidan 11 ta odamga suyak ko'migi punksiya qilingan.

Nazorat guruhidagi 11 ta odam mielogramma ko'rsatkichlarini o'rganish shuni ko'rsatdiki, suyak ko'migida asosan trombotsit tutuvchi va trombotsit ajratuvchi megakariotsitlar ustunlik qildi: trombotsit ajratuvchi megakariotsitlar $45 \pm 5\%$, trombotsit tutuvchi megakariotsitlar $30 \pm 3\%$, nofaol megakariotsitlar $13 \pm 3\%$ va bo'sh yadroli megakariotsitlar $12 \pm 2\%$ ni hosil qildi.

HCV etiologiyali JS bilan kasallangan bemorlarda davolashdan oldin suyak ko'migi punktatini o'rganishda bo'sh yadroli va nofaol megakariotsitlar miqdori ustunligi aniqlandi: trombotsit ajratuvchi megakariotsitlar $30 \pm 3\%^{**}$, trombotsit tutuvchi megakariotsitlar $22 \pm 2\%^{*}$, nofaol megakariotsitlar $27 \pm 2\%^{***}$ va bo'sh yadroli megakariotsitlar $21 \pm 2\%^{**}$ bo'ldi.


HCV etiologiyali JS bilan kasallangan bemorlarda AVTdan 3 oydan so'ng 4 bemorda mielogramma ko'rsatkichlarini o'rganishda bo'sh yadroli va nofaol megakariotsitlar soni oshganligi aniqlandi (1-rasm).

Shu bilan birga, AVT fonida 6 ta bemorda esa trombotsit ajratuvchi va trombotsit tutuvchi megakariotsitlar oshganligi aniqlandi: trombotsit ajratuvchi megakariotsitlar $21 \pm 3\%^{***\wedge}$, trombotsit tutuvchi megakariotsitlar $15 \pm 2\%^{***\wedge}$, nofaol megakariotsitlar $36 \pm 5\%^{***\wedge}$ va bo'sh yadroli megakariotsitlar $28 \pm 3\%^{***\wedge}$ bo'ldi (2-rasm).


Megakariotsitlarning sitologik ko'rinishi 3-rasmda keltirilgan.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, suyak ko'migining megakariotsitlar qatorini tahlil qilganda HCV etiologiyali JSda esa dastlabki tekshiruvdoyoq trombotsitlar qator ona hujayralarining depressiyasi aniqlandi, ya'ni trombotsit ajratuvchi va trombotsit tutuvchi megakariotsitlar 23% ga kamayib, nofaol va bo'sh yadroli megakariotsitlar deyarli 2 barobar ishonchli oshganligi aniqlandi. AVT fonida HCV etiologiyali JS bilan kasallangan 4 ta bemorda megakariotsitlar qator kuchli depressiyasi kuzatilsa, 6 ta bemorda faol megakariotsitlar soni oshishi kuzatildi. 5 ta bemorda suyak ko'migida ishonchli o'zgarish aniqlanmadi.

Suyak ko'migining qizil o'sig'ini tekshirish shuni ko'rsatdiki, HCV etiologiyali JSda eritrotsitlar qator hujayralarining nazorat guruhiga nisbatan 35% ga oshishi kuzatildi (1-jadval).



1 rasm. Trombotsitopeniya kuzatilgan HCV etiologiyali jigar sirroizida antivirus terapiya negizida megakariotsitopoez xususiyatlari.




2 rasm. HCV etiologiyali jigar sirroizida antivirus terapiya negizida megakariotsitopoez xususiyatlari

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, nazorat guruhida barcha eritroid hujayralar $24,8 \pm 2,2\%$, jumladan eritroblastlar $2,1 \pm 0,2\%$, pronormotsitlar $3,3 \pm 0,3\%$, bazofil normotsitlar $3,7 \pm 0,4\%$, polixromatofil normotsitlar $10,5 \pm 0,8\%$ va oksifil normotsitlar $5,2 \pm 0,3\%$ bo‘ldi. HCV etiologiyali JS bo‘lgan bemorlarda eritroid hujayralar soni ishonchli oshganligi aniqlandi: jami eritroid hujayralar soni $38,4 \pm 2,7\%***$ bo‘lsa, shundan eritroblastlar $2,2 \pm 0,2\%***$, pronormotsitlar $3,5 \pm 0,3\%*$, bazofil normotsitlar $5,4 \pm 0,4\%*$, polixromatofil normotsitlar $17,8 \pm 1,4\%***$ va oksifil normotsitlar $9,5 \pm 0,6\%***$ ni tashkil etdi. Shuni ta’kidlash kerakki, oksifil normotsitlarga nisbatan polixromatofil normotsitlar soni keskin oshishi bu bosqichda eritroid hujayralarning etilishi buzilganligidan dalolat beradi.

Xulosa o‘rnida aytilish mumkinki, HCV etiologiyali JS bo‘lgan bemorlarda eritroid xujayralar miqdori oshgan bo‘lib, u o‘zgarish kompensator xarakterga ega. Bu guruh bemorlarida eritrotsitlar umrining qisqarishi, gipersplenizm, gemorragik sindromga javob reaksiyasi sifatida suyak ko‘migida eritroid oldi hujayralari soni ortgan.

HCV etiologiyali JS bo‘lganlarda ham AVT fonida eritroid qator hujayralarining biroz kamayishi kuzatildi: eritroblastlar $2,2 \pm 0,2\%$ dan $1,2 \pm 0,2\%**^{\wedge\wedge}$ gacha, pronormotsitlar $3,5 \pm 0,3\%$ dan $1,5 \pm 0,3\%***^{\wedge\wedge\wedge}$ gacha, bazofil normotsitlar $5,4 \pm 0,4\%$ dan $1,9 \pm 0,2\%***^{\wedge\wedge\wedge}$ gacha,



3 rasm. Mielogrammadagi megakariotsit turlari.

1 jadval.

HCV etiologiyali jigar sirrozidada suyak ko'migi qizil o'sig'ining sitologik tahlili.

Hujayralar	Nazorat guruhi (n=11)	4-guruh (n=15)
Barcha eritroid hujayralar, %	24,8 ± 2,2	38,4 ± 2,7***
Eritroblastlar, %	2,1 ± 0,2	2,2 ± 0,2
Pronormotsitlar, %	3,3 ± 0,3	3,5 ± 0,3
Bazofil normotsitlar, %	3,7 ± 0,4	5,4 ± 0,4**
Polixromatofil normotsitlar, %	10,5 ± 0,8	17,8 ± 1,4***
Oksifil normotsitlar, %	5,2 ± 0,3	9,5 ± 0,6***

Izoh: *- nazorat guruhi ko'rsatkichlariga nisbatan ishonchli (*- p < 0,05, **- p < 0,01, ***- p < 0,001).

polixromatofil normotsitlar 17,8 ± 1,4% dan 7,4 ± 0,6%**^^^ gacha kamaydi. Oksifil normotsitlar miqdori ishonchli o'zgarmadi (2-jadval).

3 oy AVT olgan HCV etiologiyali JS bo'lgan bemorlarda eritroid o'siq ona hujayralarining kamayishi, ayniqsa tez bo'linuvchan eritroblast, pronormotsit, bazofil normotsit va polixromatofil normotsitlar miqdorining kamayishi bevosita AVTning mielotoksik ta'siri bilan bog'liq. AVTning

2 jadval.

HCV etiologiyali jigar sirrozida antivirus terapiya negizida suyak ko'migi qizil o'sig'ining sitologik tahlili.

Hujayralar	Nazorat guruhi (n=11)	4-guruh (n=15) davolashdan oldin	4-guruh (n=15) AVT 3 oy
Barcha eritroid hujayralar, %	24,8 ± 2,2	38,4 ± 2,7***	21,2 ± 2,3
Eritroblastlar, %	2,1 ± 0,2	2,2 ± 0,2	1,2 ± 0,2**^^
Pronormotsitlar, %	3,3 ± 0,3	3,5 ± 0,3	1,5 ± 0,3***^^^
Bazofil normotsitlar, %	3,7 ± 0,4	5,4 ± 0,4**	1,9 ± 0,2***^^^
Polixromatofil normotsitlar, %	10,5 ± 0,8	17,8 ± 1,4***	7,4 ± 0,6**^^^
Oksifil normotsitlar, %	5,2 ± 0,3	9,5 ± 0,6***	9,2 ± 0,4***

Izoh: *- nazorat guruhi ko'rsatkichlariga nisbatan ishonchli (*- p < 0,05, **- p < 0,01, ***- p < 0,001). ^ - davolashdan oldingi ko'rsatkichga nisbatan ishonchli (^- p < 0,05, ^^ - p < 0,01, ^^ - p < 0,001).

3 jadval.

HCV etiologiyali jigar sirroizida suyak ko'migi leykotsitar o'sig'ining sitologik tahlili.

Hujayralar	Nazorat guruhi (n=11)	4-guruh (n=13)
Blast, %	1,5 ± 0,1	1,4 ± 0,1
Jami neytrofillar, %	55,8 ± 4,1	42,2 ± 3,5*
Promielotsit, %	3,2 ± 0,2	2,6 ± 0,2*
Mielotsit, %	9,3 ± 0,7	9,1 ± 0,7
Metamielotsit,%	14,5 ± 0,9	13,3 ± 1,0
Tayoqcha yadroli neytrofil,%	16,3 ± 1,2	9,8 ± 0,7***
Segment yadroli neytrofil,%	12,5 ± 1,1	7,4 ± 0,6***
Eozinofil,%	1,2 ± 0,1	1,5 ± 0,1*
Bazofil, %	0,5 ± 0,04	0,5 ± 0,04
Limfotsit, %	10,5 ± 0,9	19,5 ± 1,5***
Monotsit, %	5,2 ± 0,3	12,7 ± 1,1***
Plazmatsit, %	0,5 ± 0,06	0,9 ± 0,06***

Izoh: *- nazorat guruhi ko'rsatkichlariga nisbatan ishonchli (*- $p < 0,05$, **- $p < 0,01$, ***- $p < 0,001$).

mielotoksik ta'siri esa ayrim bemorlarning AVT kursini olish imkoniyatini cheklab quydi. Nisbatan etilgan oksifil normotsitlar miqdori nisbatan saqlanib qolgan.

Leykotsitar qatorni o'rganish shuni ko'rsatdiki, HCV etiologiyali JSda suyak ko'migida etilgan neytrofil qator hujayralari miqdori kamaydi va limfotsitar, monotsitar hamda plazmatsitar qator hujayralari oshganligi aniqlandi (3-jadval).

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, HCV etiologiyali JS bilan kasallangan 15 ta bemorda suyak ko'migining leykotsitar qatori sitologik tavsifi quyidagicha bo'ldi: blastlar $1,4 \pm 0,1\%$, jami neytrofillar $42,2 \pm 3,5\%*$, promielotsit $2,6 \pm 0,2\%*$, mielotsit $9,1 \pm 0,7\%$, metamielotsit $13,3 \pm 1,0\%$, tayoqcha yadroli neytrofil $9,8 \pm 0,7\%***$, segment yadroli neytrofil $7,4 \pm 0,6\%***$, eozinofil $1,5 \pm 0,1\%*$, bazofil $0,5 \pm 0,04\%$, limfotsit $19,5 \pm 1,5\%***$, monotsit $12,7 \pm 1,1\%*$, plazmatsit $0,9 \pm 0,06\%***$ ni tashkil etdi.

Nazorat guruhida blastlar $1,5 \pm 0,1\%$, jami neytrofillar $55,8 \pm 4,1\%$, jumladan promielotsit $3,2 \pm 0,2\%$, mielotsit $9,3 \pm 0,7\%$, metamielotsit $14,5 \pm 0,9\%$, tayoqcha yadroli neytrofil $16,3 \pm 1,2\%$, segment yadroli neytrofil $12,5 \pm 1,1\%$ bo'lsa, eozinofil $1,2 \pm 0,1\%$, bazofil $0,5 \pm 0,04\%$, limfotsit $10,5 \pm 0,9\%$, monotsit $5,2 \pm 0,3\%$, plazmatsit $0,5 \pm 0,06\%$ ni tashkil etdi.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, HCV etiologiyali JSda suyak ko'migida tayoqcha yadroli neytrofillar $9,8 \pm 0,7\%***$ gacha kamayganligi, segment yadroli neytrofillar esa $7,4 \pm 0,6\%***$ ishonchli kam ekanligi aniqlandi. Shuning hisobiga neytrofillarning ham umumiy miqdori $42,2 \pm 3,5\%*$ gacha kam ekanligi qayd etildi. Biroq bu guruh bemorlarida limfotsitar qator hujayralari $19,5 \pm 1,5\%***$ gacha oshganligi, monotsitar qator hujayralari $12,7 \pm 1,1\%***$ gacha oshganligi hamda plazmatsitar qator hujayralari esa $0,9 \pm 0,06\%$ gacha oshganligi aniqlandi.

Yuqoridagi ma'lumotlardan xulosa qilish mumkinki, virus etiologiyali surunkali JSda neytrofil granulotsitopoez hujayralarining etilish jarayoni buzilgan. SHu bilan birga, limfotsitar, monotsitar hamda plazmatsitar qator hujayralarining oshganligi HCV etiologiyali JSda immun tizimidagi o'zgarishlar borligidan dalolat beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Bulatova I.A. Functional state of the endothelium and its diagnostic significance in assessing the severity of chronic diffuse liver diseases: abstract of thesis. Candidate of Medical Sciences. – Ekaterinburg, 2009. – 17 p.
2. Bilalova A.R. Features of the clinic and hemostasis system in patients with chronic hepatitis and cirrhosis of the liver: abstract of thesis. Candidate of Medical Sciences - Moscow, 2015. - 24 p.
3. Babadjanova Sh.A., Zaynutdinova D.L. Frequency and characteristics of immune thrombocytopenia at different stages of pregnancy // Nazariy va klinik tibbiyot jurnali. 2021. №5. B. 9-12. ISSN 2091-5853
4. Batirova A.S., Bakanov M.I., Surkov A.N. The modern concepts of hemostasis system under Chronic diseases of liver: the publication review //Klin.Lab.Diagn.–2015.–Vol.60(8), P.40–44.

5. Bienholz A., Canbay A., Saner F.H. Coagulation management in patients with liver disease // *Med.Klin.Intensivmed Notfmed.*—2016.—Vol.111(3),—P.224–234.
6. Caldwell S.H., Hoffman M., Lisman T.et al. Coagulation disorders and hemostasis in liver disease: pathophysiology and critical assessment of current management // *Hepatology.*—2006.—Vol.44.—P.44.
7. Francoz C., Belghiti J., Vilgrain V. et al. Splanchnic vein thrombosis in candidates for liver transplantation: usefulness of screening and anticoagulation // *Gut.*—2005.—Vol.54(5),—P.691–697.
8. Ghumlas A.K., Abdel Gader A.G., Al Faleh F.Z. Haemostatic abnormalities in liver disease: could some haemostatic tests be useful as liver function tests? // *Blood Coagul Fibrinolysis.*—2005.—Vol.16(5),—P.329–335
9. Hartmann M., Cynthia S., Fuat H. Hemostasis in liver transplantation: Pathophysiology, monitoring, and treatment // *World Journal of Gastroenterology.*—2016.—Vol.22(4).—P.1541–1550.
10. Hollestelle M.J., Geertzen H.G.M., Straatsburg I.H., van Gulik T.M., van Mourik J.A. Factor VIII expression in liver disease // *Thromb Haemost.*—2004.—Vol.91,—P.267–275.
11. Huard G., Bilodeau M. Management of anticoagulation for portal vein thrombosis in individuals with cirrhosis: A systematic review // *Int.J.Hepatol.*—2012.—Vol.2012,—P.6–7.
12. Iancu R.I., Iancu D., Murărescu D., Nechifor M., Costuleanu M. Platelet functions in acute and chronic experimentally induced hepatopathia // *Rev.Med.Chir.Soc.Med.Nat.Iasi.*—2010.—Vol.114(4).—P.1101–1106.
13. Kurbonova Z.C., Babadjanova S.A., Islamova Z.S., Musayeva N.B., Babadjanov A.S.(2020). Some features of hemorrhagic syndrome in chronic diffuse liver diseases. *Indian Journal of Forensic Medicine and Toxicology*, 14 (4), 7443-7448.
14. Kurokawa T., Ohkohchi N. Platelets in liver disease, cancer and regeneration // *World J.Gastroenterol.*—2017.—Vol.23(18),—P.3228–3239.
15. Pavlov Ch.S., Shulpekova Yu.O., Zolotarevsky V.B., Kogan E.A., Ivashkin V.T. Modern methods for early diagnosis of liver fibrosis // *Clinical Medicine.* — 2005. — No. 12. — P. 58–60.
16. Serov V.V., Bushueva N.V., Ignatova T.M., Aprošina Z.G. Viral and host factors in the development and progression of chronic viral hepatitis C and B // *Russian Journal of Gastroenterology, Hepatology and Coloproctology.*—2006.—No. 4.—P.12–23.

IKKILAMCHI YO‘LDOSH YETISHMOVCHILIGINING IMMUNOGISTOKIMYOVIY XUSUSIYATLARI

Sh. A. Oripova, D. A. Hasanova

Buxoro davlat tibbiyot instituti, Buxoro, O‘zbekiston

Tayanch so‘zlar: ikkilamchi yo‘ldosh yetishmovchiligi, yo‘ldosh so‘rg‘ichlari, bachadon, immunogistokimyoviy markerlar, morfologiya, morfometriya.

Ключевые слова: вторичная плацентарная недостаточность, ворсины плаценты, матка, иммуногистохимические маркеры, морфология, морфометрия.

Key words: secondary placental insufficiency, placental villi, uterus, immunohistochemical markers, morphology, morphometry.

Yo‘ldosh yetishmovchiligi yo‘ldoshning morfofunktsional o‘zgarishlariga asoslangan sindrom bo‘lib, avj olganda homilaning o‘shishi sekinlashadi va gipoksiya rivojlanadi. Shu sababli ayollarda homiladorlik davridagi yo‘ldosh yetishmovchiligining turli formalarini tashxislashni takomillashtirish zamonaviy morfologiyaning muhim muammoli masalalaridan biri hisoblanadi. Immunogistokimyoviy markerlaridan Ki-67, Bcl-2 markerlari ekspressiyalanish darajasini baholash hamda ikkilamchi yo‘ldosh yetishmovchilikda yo‘ldosh to‘qimasining gistologik shakllarida to‘qima tuzilmalarining morfometrik ko‘rsatkichlarini solishtirma tahlili qilishga qaratilgan tadqiqotlar alohida ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etmoqda.

ИММУНОГИСТОХИМИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ВТОРИЧНОЙ ПЛАЦЕНТАРНОЙ НЕДОСТАТОЧНОСТИ

Ш. А. Орипова, Д. А. Хасанова

Бухарский государственный медицинский институт, Бухара, Узбекистан

Плацентарная недостаточность является синдромом, основанным на морфофункциональных изменениях плаценты, при прогрессировании которого замедляется рост плода и развивается гипоксия. В связи с этим совершенствование диагностики различных форм плацентарной недостаточности во время беременности является одной из важных проблем современной морфологии. Исследования, направленные на оценку уровня экспрессии иммуногистохимических маркеров Ki-67 и Bcl-2, а также на сравнительный анализ морфометрических показателей тканевых структур в гистологических формах ткани плаценты при вторичной плацентарной недостаточности, имеют особое научное и практическое значение.

IMMUNOHISTOCHEMICAL CHARACTERISTICS OF SECONDARY PLACENTAL INSUFFICIENCY

Sh. A. Oripova, D. A. Hasanova

Bukhara state medical institute, Bukhara, Uzbekistan

Placental insufficiency is a syndrome based on morphofunctional changes in the placenta, which, when progressing, leads to delayed fetal growth and the development of hypoxia. Therefore, improving the diagnosis of various forms of placental insufficiency during pregnancy is one of the important issues in modern morphology. Studies aimed at assessing the expression levels of immunohistochemical markers such as Ki-67 and Bcl-2, as well as the comparative analysis of morphometric indicators of tissue structures in histological forms of placental tissue in secondary placental insufficiency, hold significant scientific and practical importance.

Tadqiqot maqsadi. Ikkilamchi yo‘ldosh yetishmovchiligining yo‘ldosh to‘qimasidagi morfologik xususiyatlarni immunogistokimyoviy markerlar orqali o‘rganish va tahlil qilish.

Material va usullar: Immunogistokimyoviy tekshirishni amalga oshirish uchun turli yosh guruhlaridagi ikkilamchi yo‘ldosh yetishmovchilikdagi ayollardan ja‘mi 55 ta tayyorlangan parafinli g‘ishtchalar tanlab olindi, immunogistokimyoviy bo‘yash uchun olingan to‘qima bo‘lakchalari 2-4 mkm qalinlikda mikraton yordamida kesib olingandan keyin, buyum oynasiga qo‘yildi va usti poli L-lizinli yoping‘ich oyna bilan yopildi. Olingan to‘qimalar avidin-biotin immunoperoksidaza usuli yordamida kesmalarni suvsizlantirish va parafinsizlantirish usulini qo‘llagan holda amalga oshirildi, deparafinizatsiya o‘tkazilgandan keyin degidratatsiya, demaskirovka o‘tkazilgandan keyin, Ventana Benchmark XT, Roche, Shveysariyaning avtomatlashtirilgan maxsus tizimida antitanachalar yordamida bo‘yaladi. Tadqiqot Ki-67 va Bcl2 antitanachalari yordamida namunalari bo‘yaladi, olingan mikrotasvirlarni (QuPath-0.4.0, NanoZoomer Digital Pathology Image) dasturiy ta‘minot asosida pozitiv ekspressiyalangan hujayralarni juda yuqori ko‘rsatkich bilan ifodlandi.

Natija va xulosalar. Ki-67 (proliferative index) Bcl2 ekspressiyalanishi darajasi foizlar hisobida baholandi. Markerlar ekspressiyalanish bo‘yalishi miqdoriy jihatdan nisbiy foizlar hisobida baholandi va yengil, o‘rta va kuchli darajadagi ekspressiyalanish deb baholandi va bu ko‘rsatkichlar:


- 0 (bo‘yalishning yo‘qligi);

1 rasm. Bcl-2 oqsili bazal qavat ayrim hujayralarida past darajada ekspressiyalangan. 25 haftalik ikkilamchi yo'ldosh etishmovchilikdagi yo'ldosh to'qimasi. Dab xromogen usulida bo'yalgan. 400 marta kattalashtirilgan tasvir. QuPath-0.4.0.ink. dasturida skaner qilingan va ekspressiyalanish darajasi aniqlangan. Musbat ekspressiyalangan xujayralar qizil rangda. Musbat ekspressiya 3,41%.


- 1+ (<20% hujayralar, sust bo'yalgan);
- 2+ (20-60% hujayralar, o'rtacha darajada bo'yalgan);
- 3+ (>60% hujayralar, kuchli darajada bo'yalgan) tasnifga ajratilgan.

Bcl-2 bu marker odam organiz-

mida Bcl-2 genomi bilan kodlangan oqsil bo'lib, bu hujayralarning o'limini, ya'ni apoptozni ta'minlab beruvchi oqsil hisoblanadi. Bu oqsil hujayra sitoplazmasida mitxondriyaning tashqi membranasida joylashgan bo'lib, bu hujayraning yashashi uchun muhim o'rin egallaydi, shu bilan birga apoptoz jarayonini tezlashtiruvchi ta'sirlarni to'xtatib qo'yadi.




Ki-67 marker hujayralarning proliferativ faolligini baholash uchun qo'llaniladi. Bu marker foizlarda baholanadi va hujayralarni qay darajada bo'linish aktivligini ko'rsatadi. Ki 67 namoyon qiluvchi maxsus oqsil hujayraning yadrosida joylashib, hujayra proliferatsiyasi uchun muhim bo'lgan materiallardan biri hisoblanadi. Bu oqsilni aniqlash hujayra bo'linishining bosqichida ekanligini qay darajada faol va tez bo'layotganini asosida yo'ldosh hujayralarning o'sish tezligini, davolanganda ularning samaradorligini baholash uchun muhim ko'rsatkich bo'lib hisoblanadi. Bizning tadqiqotimizda nazorat guruhi, ikkilamchi yo'ldosh yetishmovchilikdagi yo'ldosh to'qimalarida proliferativ faollikni aniqlash maqsadiga qo'llanildi.



2 rasm. Bcl-2 oqsili bazal qavat ayrim hujayralarida past darajada ekspressiyalangan. 30 haftalik ikkilamchi yo'ldosh etishmovchilikdagi yo'ldosh to'qimasi. Dab xromogen usulida bo'yalgan. 400 marta kattalashtirilgan tasvir. QuPath-0.4.0.ink. dasturida skaner qilingan va ekspressiyalanish darajasi aniqlangan. Musbat ekspressiyalangan xujayralar qizil rangda. Musbat ekspressiya 3,41%.

Xulosa. Nazorat guruhidagi yo'ldosh etishmovchilikdagi yo'ldosh to'qimasida Ki 67 markerning ekspressiyalanishi yosh dinamikasida pasayib borish kuzatildi. 20-25 haftalikdan 30-35 haftalikga davomida

3 rasm. Ki 67 markerining ekspressiyalanishi. 25 haftalik ikkilamchi yo'ldosh etishmovchilikdagi yo'ldosh to'qimasi. Dab xromogen usulida bo'yalgan. 400 marta kattalashtirilgan tasvir. QuPath-0.4.0.ink. dasturida skaner qilingan va ekspressiyalanish darajasi aniqlangan. Musbat ekspressiya 6,76%(1+).



Ki 67 markerning ekspressiyalanishi nazorat guruhiga qaraganda har bir haftalikda deyarli 1,3- 2 baravarga pasayishi, Ki 67 markerning ekspressiyasi nisbatan oshishi aniqlandi. Nazorat guruhidagi yo‘ldosh yetishmovchilikda yo‘ldosh to‘qimasida Bcl 2 markerning ekspressiyalanishi 20-25 haftalikdan 30-35 haftalikga oshib bordi va bu o‘shish 23% ni tashkil qildi. Bcl 2 markerning ekspersiyalanishi nazorat guruhiga qaraganda 2- 3 baravarga oshganligi aniqlandi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Автандилов Г.Г. Медицинская морфометрия.-М. 1990; 149с.
2. Абдуразакова М. Д. Бабаджанова Г. С. Особенности состояния фетоплацентарного комплекса у беременных женщин при варикозной болезни вен нижних конечностей и органов малого таза //Новости дерматовенерологии и репродуктивного здоровья. - Ташкент, 2017. №3-4 (1). - С. 11-12.
3. Абдусаматова М. Ф. Каримов А. Х. Влияние некоторых факторов риска при беременности на развитие синдрома ограничения роста плода : материалы Республиканской конференции «Акушерские кровотечения: новые технологии профилактики и лечения» //Новости дерматовенерологии и репродуктивного здоровья. - Ташкент, 2016. №1-2. - С. 172
4. Ажибеков С.А. Рол генетически деатамасированных особенностей энергетического обмена в формировании плацентарной недостаточности с исходом в синдром задержки роста плода: научное издание // Акушерство и гинекология. - М., 2016. - №11. - С. 11-15.
5. Hasanova D. A .Ogipova SH, A, Жўраева Г.Б. Иккиламчи плацентар етишмасликда юзага келадиган морфологик ўзгаришлар //Тиббиётда янги кун. – 2020.–2/1(30/1) - С. 134-136. (14.00.00; №22)

ВЛИЯНИЕ КОМБИНИРОВАННОЙ ТЕРАПИИ ОМЕГА-3 И ПРОГЕСТОГЕНА НА УРОВЕНЬ IL-6: ПРЕИМУЩЕСТВА ПЕРЕД МОНОТЕРАПИЕЙ ПРИ СИНДРОМЕ АНОРЕКСИИ ОБУСЛОВЛЕННЫЙ ДИССЕМНИРОВАННЫМ РАКОМ МОЛОЧНОЙ ЖЕЛЕЗЫ

Н. М. Рахимов, Ш. Ш. Шаханова, Б. Т. Туланов

Самаркандский государственный медицинский университет, Самарканд, Узбекистан

Ключевые слова: анорексия, омега-3, мегестрол ацетат, рак молочной железы.

Tayanch soʻzlar: anoreksiya, omega-3, megestrol atsetat, sut bezi saratoni.

Key words: anorexia, omega-3, megestrol acetate, breast cancer.

Клиническое исследование было направлено на изучение действия мегестрол ацетата у пациентов с прогрессирующими онкологическими заболеваниями. Особое внимание уделялось его влиянию на уровень интерлейкина-6, который считается ключевым маркером воспаления при раковой кахексии. В исследовании участвовали 85 пациентов с подтвержденным диагнозом рака в поздней стадии. Все они страдали от значительной потери веса. Пациенты были разделены на три терапевтические группы. Первая получала мегестрол ацетат дозировкой 800 мг в сутки. Вторая группа принимала таблетки мегестерол ацетат 800 мг и омега-3. Сами пациенты оценивали свой аппетит и общее самочувствие. Через месяц лечения были получены следующие результаты изменения уровня интерлейкина-6: У принимавших мегестрол ацетат: снижение на $1,52 \pm 4,7$ пг/мл; У получавших комбинацию омега-3 и мегестерола ацетата снижение на $0,62 \pm 2,5$ пг/мл. Статистический анализ показал, что разница между группами значительна ($P=0,045$). Даже у пациентов, отметивших улучшение аппетита, отмечено существенных изменений уровня интерлейкина-6. Также было найдено связи между изменениями интерлейкина-6 и динамикой веса или качества жизни пациентов.

OMEGA-3 VA PROGESTOGEN KOMBINATSIYALI TERAPIYANING IL-6 DARAJASIGA TA'SIRI: METASTATIK SUT BEZI SARATONI BILAN BOG'LIQ ANOREKSIYA SINDROMIDA MONOTERAPIYAGA NISBATAN AFZALLIKLARI

N. M. Raximov, Sh. Sh. Shaxanova, B. T. Tulanov

Samarqand davlat tibbiyot universiteti, Samarqand, O'zbekiston

Ushbu klinik tadqiqot rivojlangan bosqichdagi onkologik kasalliklarga chalingan bemorlarda megesterol atsetatning ta'sirini o'rganishga qaratilgan. Tadqiqotda, ayniqsa, ushbu dori vositasining interleykin-6 (IL-6) darajasiga ta'siri o'rganildi. IL-6 saraton kaxeziyasi uchun asosiy yallig'lanish belgisi deb hisoblanadi. Tajriba davomida bo'ir vazn yo'qotgan 85 nafar kasalning kech bosqichdagi saraton tashxisi tasdiqlandi. Bemorlar terapevtik guruhlariga bo'linib, turli davolash usullari bilan davolandilar. Birinchi guruhga kuniga 800 mg megesterol atsetat buyurildi. Ikkinchi guruh esa 800 mg megesterol atsetat va omega-3 kombinatsiyasini qabul qildi. Bemorlarning o'zlarini ishtahasi va umumiy holatini baholadilar. Bir oylik davolanishdan so'ng quyidagi IL-6 darajasidagi o'zgarishlar kuzatildi: - Faqat megesterol atsetat olganlarda: $1,52 \pm 4,7$ pg/ml pasayish; - Omega-3 va megesterol atsetat kombinatsiyasini olganlarda: $0,62 \pm 2,5$ pg/ml pasayish. Statistik tahlillar natijalar orasidagi farqni sezilarli deb ko'rsatdi ($P=0,045$). Biroq, ishtaha yaxshilangan bemorlarda ham IL-6 darajasida sezilarli o'zgarishlar aniqlanmadi. Shu bilan birga, IL-6 darajasidagi o'zgarishlar vazn yoki hayot sifatining o'zgarishi bilan kuchli bog'liq emasligi aniqlangan.

THE EFFECT OF COMBINED THERAPY WITH OMEGA-3 AND PROGESTERONE ON IL-6 LEVELS: ADVANTAGES OVER MONOTHERAPY IN ANOREXIA SYNDROME CAUSED BY DISSEMINATED BREAST CANCER

N. M. Raximov, Sh. Sh. Shaxanova, B. T. Tulanov

Samarkand State Medical University, Samarkand, Uzbekistan

This clinical study focused on evaluating the effects of megestrol acetate in patients with advanced-stage cancer. A particular emphasis was placed on assessing its influence on interleukin-6 (IL-6), a key inflammatory marker commonly associated with cancer cachexia. The research involved 85 patients diagnosed with late-stage cancer, all of whom experienced notable weight loss. Participants were divided into three groups for therapeutic comparison. The first group received a daily dose of 800 mg of megestrol acetate, while the second group was treated with a combination of 800 mg megestrol acetate and omega-3. Patients self-assessed their appetite and overall well-being throughout the study. After one month of treatment, the following IL-6 level changes were observed: - Patients treated with megestrol acetate alone showed a decrease of 1.52 ± 4.7 pg/ml. - Those given the combination of omega-3 and megestrol acetate recorded a reduction of 0.62 ± 2.5 pg/ml. A statistical analysis revealed a significant difference between the two groups ($P=0.045$). Nevertheless, even among patients experiencing appetite improvement, no major shifts in IL-6 levels were noted. Additionally, changes in IL-6 levels were not strongly correlated with modifications in body weight or the patients' quality of life.

Введение. Некоторые исследования показали, что мегестрол ацетат может улучшить аппетит у пациентов с запущенной стадией рака. Этот препарат также может помочь в борьбе с потерей веса. Хотя точные механизмы его действия еще не полностью изучены, есть

данные, которые подтверждают, что прогестагены могут облегчать анорексию и потерю веса. Это происходит, вероятно, за счет снижения уровня интерлейкина-6 (IL-6). IL-6 — это воспалительный цитокин, который часто связан с развитием анорексии и кахексии у людей с онкологическими заболеваниями.

В последнее время ученые провели ряд клинических исследований, которые выявили способность прогестагенных препаратов снижать уровень интерлейкина-6 (IL-6).

Команда доктора Мантовани изучала пациентов с раком головы и шеи. В исследовании приняли участие девять человек. Они получали мегестрол ацетат в дозах от 160 до 320 мг каждый день вместе с основным лечением от рака. Через несколько недель врачи отметили, что пациенты начали набирать вес. У них улучшился аппетит. Анализы показали снижение выработки IL-6 мононуклеарными клетками периферической крови.

Доктор Ямашита со своей командой провел отдельное исследование. Они наблюдали за пациентами с прогрессирующим раком молочной железы. В течение четырех недель 21 пациент принимал медроксипрогестерон. Анализ крови показал снижение уровня IL-6 у всех участников исследования. Врачи заметили, что пациенты, у которых IL-6 снизился более чем на 3 пг/мл, лучше набирали вес и имели более хороший аппетит.

Эти результаты вдохновили нас на проведение собственного исследования. Мы хотим изучить, как мегестрол ацетат влияет на количество IL-6 в сыворотке крови. На сегодняшний день это самое крупное клиническое исследование, которое оценивает связь между прогестагенными препаратами и IL-6 у онкологических пациентов с анорексией и потерей веса.

Цель: в сравнительном аспекте оценить эффективность комбинации омега-3 жирных кислот с прогестогеном (мегестрол ацетата) в снижении уровня интерлейкина-6 у больных диссеминированным раком молочной железы осложненный синдромом анорексии

Материалы и методы. Исследование проводилось на базе филиала республиканского онкологического научного центра в Кашкадарьинской области и хосписа города Самарканда в период с января 2023 по январь 2024 года. В исследование было включено 83 пациента.

Методом рандомизации пациенты были распределены на две группы: 1-ая (контрольная группа) $n=41$ получала мегестрол ацетат в дозировке 8 мг парентерально на протяжении трех недель; контрольная группа ($n=39$) получала преднизолон перорально в дозировке 20 мг в течение аналогичного периода. Средний возраст пациентов составил $5,2\pm 0,8$ лет.

До начала терапии всем пациентам проводилось комплексное лабораторное обследование, включающее: общий анализ крови с подсчетом лейкоцитарной формулы; определение уровня эритроцитов; измерение концентрации гемоглобина; подсчет количества тромбоцитов; биохимический анализ крови с определением уровня мочевины и креатинина; оценку печеночных проб (общий билирубин, АСТ, АЛТ). Антропометрические измерения (масса тела, рост) проводились трехкратно - перед каждым курсом лечения.

Критерии включения явились пациентам больше 18 лет с гистологически подтвержденным неизлечимым раком молочной железы, ожидаемой продолжительностью жизни ≥ 9 месяца и статусом функционального состояния ECOG 0-2. У пациентов имело место потеря веса не менее 5 фунтов (2,3 кг) за предыдущие 2 месяца и/или врачебной оценке калорийности питания < 20 калорий на кг массы тела в день.

Критериями исключения являлись: артериальная гипертензия; сахарный диабет; дыхательная недостаточность; язвенная болезнь желудка и двенадцатиперстной кишки; психические заболевания; глаукома

В процессе лечения и в течение трех недель после его окончания проводилось анкетирование пациентов с оценкой динамики аппетита, массы тела и регистрацией побочных эффектов терапии.

Статистическая обработка данных осуществлялась с применением критерия χ^2 , t-критерия Стьюдента и расчета отношения шансов. Полученные результаты представлены в виде таблиц и графиков. В исследовании приняли участие 85 пациентов.

Критерии исключения включали текущее использование зондового питания или парентерального питания, наличие асцита, недавнее лечение определенными препаратами, метастазы в мозг, инсулинозависимый диабет, беременность или нежелание использовать

оральные контрацептивы, ожидаемое употребление алкоголя или барбитуратов, плохо контролируруемую гипертензию или застойную сердечную недостаточность, а также историю тромбоэмболических заболеваний.

Лабораторный анализ Все образцы сыворотки немедленно замораживались при -70°C после сбора и отправлялись в лаборатория Самаркандского областного межрегионального хосписа. С целью измерения ИЛ-6. Сывороточный ИЛ-6 измерялся с помощью коммерчески доступного набора для иммуноферментного анализа “Fia meter plus). Согласно производителю набора, этот анализ имеет чувствительность <2 пг/мл. Когда концентрации образцов превышали верхний предел стандартной кривой (>10 пг/мл), образцы разбавлялись, и анализы повторялись для полного и точного количественного определения ИЛ-6 в каждом образце сыворотки.

В период с февраля 2023 года по июнь 2024 года было обследовано 85 пациентов, у которых забор крови проводился как в исходном состоянии, так и через 1 месяц. Исходные характеристики пациентов представлены в таблице 1. Из этих 85 пациентов у 15 (18%) отсутствовали данные об аппетите, у 17 (20%) - о глобальном качестве жизни, и у 5 (6%) - о массе тела, зафиксированной врачом в конце 1-месячного периода наблюдения.

Таблица 1.

Исходные данные в сравниваемых группах.

	Мегастерол ацетат (n=45)	Мегастерол ацетат+Омега 3 (n=40)
Возраст	67±3,2	65±4,1
Потеря веса		
До 10 %	13 (28,8±0,68%)	12 (30,1±1,3%)
Более 10 %	32(71,1±1,8%)	28 (70,1±3,4%)
Вес (кг)	64±12	69±15
Качество жизни	49±24	58±24
Уровень ИЛ-6 (pg/ml: median (range))	4,7± 0,8	4,1±0,58
Тяжесть анорексии “удовлетворительная+умеренная+плохая (cumulative %)	96	91

Результаты. Концентрации сывороточного интерлейкина-6 (ИЛ-6) в исходном состоянии и через 3 месяц лечения для всей изучаемой популяции были следующими (в среднем ± стандартное отклонение): $4,5\pm 0,4$ пг/мл в первой группе против $3,2\pm 0,2$ пг/мл во второй группе (рис. 1). Данные об изменениях ИЛ-6 были распределены нормально. Мы обнаружили значимых различий в изменениях сывороточного ИЛ-6 через 3 месяца в зависимости от того, получали ли пациенты только мегестрол ацетат или в комбинации Омега 3: средние различия ± стандартное отклонение от исходного уровня до 3 месяца лечения составили $-1,52\pm 1,7$ пг/мл, $-0,62\pm 0,65$ пг/мл соответственно ($P=0,05$, по одностороннему ANOVA).

Аналогичным образом, фактические значения ИЛ-6, оцененные через 3 месяца, показали значимых различий между группами лечения.

Среди пациентов, отметивших изменения аппетита, мы наблюдали значимых 3-месячных изменений ИЛ-6 в зависимости от того, сообщали ли пациенты, что их аппетит остался прежним (n=16), улучшился (n=49) или ухудшился (n=6): изменения (в среднем±стандартное отклонение) составили: $-2,11\pm 1,2$ пг/мл, $-0,51\pm 3,9$ пг/мл соответственно ($P=0,042$, по одностороннему ANOVA).

Наконец, мы изучили, были ли 3-месячные изменения концен-




Рис. 1. Различий в изменениях сывороточного ИЛ-6 в сравниваемых группах

традий сывороточного ИЛ-6 связаны с изменениями массы тела или глобального качества жизни, и не обнаружили статистически значимых ассоциаций.

Вывод: Исследование показало, что препарат мегестрола ацетат не влияет на снижение уровня интерлейкина-6 у пациентов с РМЖ. У этих пациентов наблюдалась потеря веса и отсутствие аппетита. Мы не обнаружили связи между уровнем интерлейкина-6 и изменениями аппетита, веса или самочувствия пациентов в течение 3 месяца лечения. Наши выводы не совпадают с результатами прошлых исследований о влиянии прогестагенов на уменьшение потери веса у онкобольных. Добавление к мегестеролу ацетату Омега 3 приводит к уменьшению цитокина ИЛ-6, что привело к улучшения качества жизни.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Argilés, J. M. Cancer-associated cachexia—understanding the tumour macroenvironment and microenvironment to improve management / J. M. Argilés [и др.] // *Nature Reviews Clinical Oncology*. – 2023. – Т. 20, № 4. – С. 250-264.
2. Currow, D. C. A randomised, double blind, placebo-controlled trial of megestrol acetate or dexamethasone in treating symptomatic anorexia in people with advanced cancer / D. C. Currow [и др.] // *Scientific reports*. – 2021. – Т. 11, № 1. – С. 2421.
3. Hou, Y. Serum cytokines and neutrophil-to-lymphocyte ratio as predictive biomarkers of benefit from PD-1 inhibitors in gastric cancer / Y. Hou [и др.] // *Frontiers in immunology*. – 2023. – Т. 14. – С. 1274431.
4. Кручинина, М. В. Жирные кислоты мембран эритроцитов и сыворотки крови как биомаркеры для диагностики ранних стадий колоректального рака / М. В. Кручинина [и др.] // *Сибирский онкологический журнал*. – 2022. – Т. 21, № 2. – С. 65-80.
5. Кручинина, М. В. Новые подходы к диагностике ранних стадий колоректального рака: использование панелей жирных кислот мембран эритроцитов и сыворотки крови / М. В. Кручинина [и др.] // *Российский журнал гастроэнтерологии, гепатологии, колопроктологии. Приложение*. – 2021. – Т. 31, № 5 S58. – С. 76-76.
6. Pavlik, T. Antitumor progestins activity: Cytostatic effect and immune response / T. Pavlik, E. Konchekov, N. Shimanovskii // *Steroids*. – 2024. – С. 109474.
7. Rakhimov, N. M. Practical recommendations for nutritional support for cervical cancer / N. M. Rakhimov [и др.] // *Journal of Biomedicine and Practice*. – 2023. – Т. 8, № 2.
8. Shakhanova, S. Breast tumors in adolescent girls / S. Shakhanova, N. Rakhimov, P. Zaripova // *Journal of Biomedicine and Practice*. – 2022. – Т. 7, № 3. – С. 266-273.
9. Shavkatovna, S. S. Features of sarcopenia in cancer patients / S. S. Shavkatovna, R. N. Makhammatkulovich // *European Journal of Modern Medicine and Practice*. – 2024. – Т. 4, № 8. – С. 286-292.
10. Shavkatovna, S. S. Aspects of sarcopenia syndrome in oncological practice: diagnosis and treatment / S. S. Shavkatovna, R. N. Makhammatkulovich, M. S. T. Ugli // *The American Journal of Medical Sciences and Pharmaceutical Research*. – 2024. – Т. 6, № 2. – С. 16-25.
11. Watanabe, H. The latest treatments for cancer cachexia: an overview / H. Watanabe, T. Oshima // *Anticancer Research*. – 2023. – Т. 43, № 2. – С. 511-521.
12. Yorov, L. Sh. Assessment of the immune status in patients with breast cancer with determination of the effectiveness of neoadjuvant polychemotherapy / L. Sh. Yorov, M. D. Juraev, N. M. Rakhimov, Sh. Sh. Shakhanova // *Journal of Biomedicine and Practice*. – 2022. – Т. 7, № 5.

METHODOLOGY OF IMPLEMENTING SURGICAL OPERATION IN THE TREATMENT OF DUODENAL ULCER**Sh. N. Salomov, Kh. M. Aliyev**

Andijan state medical institute, Andijan, Uzbekistan

Key words: duodenal ulcer, surgical treatment, vagotomy, pyloroplasty, antrectomy, gastrectomy.**Tayanch soʻzlar:** oʻn ikki barmoqli ichak yazvasi, xirurgik davolash, vagotomiya, pyloroplasti, antrektomiya, gastrektomiya.**Ключевые слова:** язва двенадцатиперстной кишки, хирургическое лечение, ваготомия, пилоропластика, антректомия, гастрэктомия.

Duodenal ulcer (peptic ulcer) is a condition that affects the upper part of the intestine and can lead to serious complications. This paper analyzes the role of surgical intervention in the treatment of duodenal ulcers and its methodological approach. The study reviews the indications, methods, and clinical application of surgical treatment for duodenal ulcers. Risks and potential complications related to surgical interventions are also discussed.

OʻN IKKI BARMOQLI ICHAK YAZVASINI DAVOLASHDA XIRRURGIK AMALIYOTNI AMALGA OSHIRISH METODOLOGIYASI**Sh. N. Salomov, Kh. M. Aliyev**

Andijon davlat tibbiyot instituti, Andijon, Oʻzbekiston

Oʻn ikki barmoqli ichak yazvasi (peptik yara) — bu ichakning yuqori qismida yuzaga keladigan va jiddiy asoratlarga olib kelishi mumkin boʻlgan bir kasallikdir. Ushbu maqolada oʻn ikki barmoqli ichak yazvasining davolashda xirurgik amaliyotlarning oʻrni va metodologiyasi tahlil qilinadi. Tadqiqotda xirurgik davolash usullarining koʻrsatmalari, metodlari, va amaliyotga tatbiq etilishi muhokama qilinadi. Shuningdek, maqolada xirurgik aralashuvlar va ular bilan bogʻliq xavf-xatarlar ham koʻrib chiqiladi.

МЕТОДИКА ОСУЩЕСТВЛЕНИЯ ХИРУРГИЧЕСКОЙ ОПЕРАЦИИ ПРИ ЛЕЧЕНИИ ДУОДЕНАЛЬНОЙ ЯЗВЫ**Ш. Н. Саломов, Х. М. Алиев**

Андижанский государственный медицинский институт, Андижан, Узбекистан

Язва двенадцатиперстной кишки (пептическая язва) является заболеванием верхних отделов кишечника, которое может привести к серьезным осложнениям. В данной статье рассматривается роль хирургического вмешательства в лечении язвы двенадцатиперстной кишки и методология его применения. В исследовании анализируются показания, методы и практическое применение хирургического лечения язвы. Также обсуждаются риски и возможные осложнения, связанные с хирургическим вмешательством.

Relevance. Duodenal ulcers are one of the most common gastrointestinal diseases worldwide. It is estimated that up to 10% of the global population will experience a duodenal ulcer in their lifetime, and approximately 20-30% of these patients will require surgical intervention. Surgery becomes necessary when complications such as bleeding, perforation, or gastric outlet obstruction occur, or when conservative treatment fails.

